

**UZUAL FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SHAKLLANISHIDA SOMATIK
KOMPONENTLAR BIRLIKLARINING TEMATIK GURUHLARI**

O‘razboyev Olimjon Rustam o‘g‘li

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada uzuallashgan frazeologik birliklarning shakllanishida konstan komponentlar, konstant ma‘noni frazeologik birliklarning tematik guruhleri, frazeologik birliklar tarkibidagi konstant (o‘zgarmas) komponentlarning xususiyatlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: uzual, tematik guruhleri, somatik komponentlar, lug‘aviy birlik, okkazional ma‘no, konstant somatik component

Abstract: In this article, constant components in the formation of generalized phraseological units, thematic groups of phraseological units with a constant meaning, features of constant (invariable) components in phraseological units are analyzed.

Key words: common, thematic groups, somatic components, lexical unit, occasional meaning, constant somatic component

Аннотация: В данной статье анализируются постоянные компоненты в образовании обобщенных фразеологизмов, тематические группы фразеологизмов с постоянным значением, особенности постоянных (неизменных) компонентов во фразеологизмах.

Ключевые слова: общее, тематические группы, соматические компоненты, лексическая единица, окказиональное значение, постоянный соматический компонент.

Frazeologik birliklarning uzual va okkazional qo‘llanilish xususiyatlari, matndagi transformatsiyasi va ularning lisoniy imkoniyatga tahlil etilgan.

Ilmiy adabiyotlarda so‘zda lug‘aviy birlik sifatida bor, umum tomonidan qabul etilgan, umum ko‘llanishdagi ma‘no uzual ma‘no (lot.usus-odat, qoida)¹ deb e‘tirof etiladi. Lug‘atlarda akt etgan frazeologik birliklarning invariant, variant, sinonimik ma‘nolari uzual ma‘nolardir. Lug‘aviy birlik sifatida ma‘lum bo‘lgan so‘z, so‘z birikmasi, turg‘un birikmalarning nutqiy voqelanishi uzual qo‘llash deb e‘tirof etiladi.

Okkazional (tasodifiy) ma‘no esa umumiiy qabul qilingan talaffuzga muvofiq bo‘lmagan, shaxsiy tavsifga ega, o‘ziga xos kontekst bilan ta‘minlangan² ma‘noni bildiradi.

Uzuallashgan frazeologik birliklarning shakllanishida somatik komponentlar, uzual ma‘noni frazeologik birliklarning tematik guruhleri, frazeologik birliklar

¹ Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent, 2002.-B.113.

² Yo‘ldashev B. O‘zbek tilida frazeologizmlarning uslubiy va pragmatik omponetlari. Samarkand, 2002.

tarkibidagi konstant (o'zgaras) komponentlarning xususiyatlari tahlil etilgan.

Oyoq somatik so'zi oyog'ini bilib bosmoq, oyog'ini tirab olmoq, oyog'ini tortmoq, yog'ini uzmaslik, oyog'ini chakki bosmoq, oyog'ini uzatmoq, oyoqdan qolmoq, oyog'idan tormoq, oyoqqa bosmoq, oyog'ini yiqilmoq, oyog'i siyraklashdi, oyog'i tiyildi, oyog'i tormoadi kabi frazeologik birliklarda konstant komponent sifatida ishtirok etadi va turli obrazlarda shakllanadi.

Ko'rinadiki, konstant komponent transformatsiya qilinmaydi, konstant somatik komponentlarning ishtirokiga ko'ra ular somatik frazeologizmlar deb e'tirof qilinadi. Tilda ular somatik komponentning ma'nosi yoki uning obrazi bilan bog'liq voqelikni gavjadashtiradi.

Doimiy qo'llanish jarayonida frazeologik birliklar ilk ifodaliligining ahamiyati hissasini yo'qotadi, okkazional qo'llik esa frazeologik birliklarga yangilanish va yorqinlik, nutqga ifodalilik berish imkonini yaratuvchi stilistik usuldir. Do'ppiga qo'shib faqat boshni emas, oyoq-qo'lni ham qiyma-qiyma qilib olib keladi. (T.Malik. Davron). Qiyoslang: salla ol desa, kalla olmoq; do'ppini ol desa, boshini olmoq; do'ppini ol desa, oyoq-qo'lni olmoq.

Umumtildagi og'ziga tolqon solmoq iborasi "mutlaqo gapirmaslik, suhbatda mutlaho qatnashmaslik" ma'nolarini anglatadi. Okkazional tarzda qo'llanilgan og'zidagi tolqin erimadi frazeologik birligi muddat jim turish" ma'nosini ifodalashi bilan xoslanadi: Samandar taklifini yana takrorladiyamki, talabalarning og'zidagi tolqon erimadi. (U.Hamdani. Sabo va Samandar). Qiyoslang: og'ziga tolqon solmoq-og'zidagi tolqon erimaslik.

Transformatsiyalangan frazeologik birliklar kontekstual hoisadan uzual, til hodisasiga o'tishi mumkin. Bu esa adabiy til frazeologik tizimining taraqqiyot jarayonini o'zida ifoda etadi.

Xullas, erkin birikmalar til vakillari tomonidan transformatsiya qilinib, ko'chma ma'nolangan frazeologik ma'noga ega bo'ladiyu Shu asosda frazeologik birlikka xos bo'lgan uzual ma'no yuzaga keladi. Demak, frazeologik birliklar ma'lum ma'noviy taraqqiyotni boshdan kechiradigan semantik hodisasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmatullayev Sh. O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari. Toshkent, 1966.
2. Rahmatullayev Sh. Leksik va frazeologik birlik ma'nosini komponent tahlilining ba'zi natijalari // O'zbek tili va adabiyoti. 1986.3-son.
3. Usmanova Sh.R. O'zbek va turk tillarida somatik frazeologik birliklar. T.,1998.
4. Iskandarova Sh. O'zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o'rganish (shaxs mikromaydon). Toshkent, 1999.
5. Hakimov Q. O'zbek tilidagi sodda gap qolipli frazeologik birliklarning zaruriy birikuvchanligi: Filol. fan. nom...diss.avtoref.Toshkent, 1994.